

I



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2024 - yil 1 - mart

61-10-0-F/24

Toshkent viloyati hokimiligi

“8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan Toshkent viloyati hokimligida faoliyat olib borayotgan bir guruh ayollarni rag‘batlantirish uchun mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi VI-86-3-10-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, “8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan Toshkent viloyati hokimligida faoliyat olib borayotgan bir guruh ayollarni rag‘batlantirish maqsadida, viloyat hokimi o‘rinbosari D.Babajanovning bildirgisini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 6, 25-moddalariga asosan,

1. Viloyat hokimining 2024-yil 8-fevraldagi 29-10-0-F/24-sonli farmoyishi asosida ajratilgan mablag‘lardan tejab qolingan mablag‘lar doirasida “8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan Toshkent viloyati hokimligida faoliyat olib borayotgan bir guruh ayollarni rag‘batlantirish uchun 152 250 000,0 (bir yuz ellik ikki million ikki yuz ellik ming) so‘m mablag‘ ajratilsin.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i F.Xudoyberdiyev mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta‘minlasin.

3. Viloyat g‘aznachilik boshqarmasi boshlig‘i S.Sodiqov ajratilgan mablag‘ bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlasin.

4. Viloyat hokimligi ishlar boshqarmasi boshlig‘i A.Mixmanov ajratilgan mablag‘ belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlasin.

5. Viloyat davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi boshlig‘i S.Xudoyberdiyev ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanishi ustidan nazorat

o‘rnatilgan.

6. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdullayev, viloyat hokimi o‘rinbosari D.Babajanovlar zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev